

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TIBBIYOTNING RIVOJI VA TUTGAN O‘RNI

Sattorova Dildora Gapparovna

Toshkent Davlat Stomatologiya Institut Ijtimoiy fanlar va bioetika kafedresi, falsafa
fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: dsttorjva1966@gmail.com

Kamolov Komiljon Nuritdin o‘g‘li

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Ortodontiya va tishlarni protezlash kafedresi
1-kurs magistranti

E-mail: kamiljonkamolov23@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da tibbiyot sohasida qilinishi kerak bo‘lgan zarur islohotlar va oldimizga qo‘yilgan maqsadlar orqali shu sohaning rivojlanishi va taraqqiy topishi haqida so‘z yuritimiz.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy tibbiyot, “bir qadam” tamoyoili, xususiy sektor, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, farmasevtika, reproduktiv salomatlik, tibbiy-sanitariya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье мы расскажем о развитии и прогрессе этой отрасли посредством необходимых реформ в области медицины и поставленных перед нами целей в “Стратегии развития нового Узбекистана” на 2022-2026 годы, принятой президентом Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Современная медицина, принцип “один шаг”, частный сектор, “Стратегия развития нового Узбекистана”, фармацевтика, репродуктивное здоровье, медико-санитария

ABSTRACT

In this article, we will talk about the development and progress of this area through the necessary reforms to be carried out in the field of Medicine and the goals set before us in the new Uzbekistan development strategy for 2022-2026 adopted by our president

Keywords: Modern medicine, principle of “one step”, private sector, “Strategy for the development of a new Uzbekistan”, Pharmaceuticals, reproductive health, medicine and sanitation.

Rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekistonda dastlab 2017-2021-yillarda besh ustuvor yo‘nalishdan iborat “Harakatlar strategiyasi” qabul qilingan bo‘lsa, hozirda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat yuzta maqsadni o‘z ichiga olgan “Taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Har bir yo‘nalishda O‘zbekistonning ham iqtisodiy ham ijtimoiy har taraflama yuksaltirish va rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shu jumladan tibbiyot sohasini ham rivojlantirish, yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash, arzon va sifatli dori-darmon ishlab chiqarish, farmasevtika sohasini tubdan isloh qilish, tibbiyotda xususiy sektor hissasini oshirish, tibbiyot xodimlari oylik maoshlarini bosqichma-bosqich oshirib borish ko‘zda tutilgan.

Harakatlar strategiyasida tibbiyot sohasi to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi ikkinchi bandi meditsina sohasini rivojlantirishga bag‘shlanib quyidagicha bayon etilgan : 4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Biroq bu ustuvor yo‘nalish ko‘zda tutilgandek rivojlantirilmadi, butun dunyoni sarosimaga solib qo‘ygan 2019-yilda hamma davlatlarda pandemiyaga sabab bo‘lgan COVID-19 virusi tibbiyotimizning naqadar ayanchli ahvolda ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. Shundan keyin qanday ahvolda ekanligi ko‘rinib qolgan meditsinamizda anchagina ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Masalan, chet davlatlardan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar import qilindi, raqamli tibbiyotni shakllantirish va uni rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Kelajakda ham bu sohani rivojlantirishda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham o‘n ikkita maqsadni tibbiyot sohasiga tegishli ekanligi bunga yaqqol dalildir.

Taraqqiyot strategiyasida eng ko‘p urg‘u qaratilgan va ko‘plab maqsadlarni o‘z ichiga olgan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish **“Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanadi va o‘z ichiga tibbiyot sohasini ham qamrab oladi. Taraqqiyot strategiyasidagi 55-66-maqsadlarda tibbiyotimizning rivoji va taraqqiyoti uchun qilinishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar aniq belgilab qo‘yilgan. Keling kejakda tibbiyot sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan maqsadlar bilan tanishib chiqamiz.**

55-maqsad: Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.

56-maqsad: Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish.

57-maqsad: Tibbiy asbob-uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

58-maqсад: Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish.

59-maqсад: Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish.

60-maqсад: Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

61-maqсад: Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish.**62-maqсад:** Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish.

63-maqсад: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish.

64-maqсад: Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni "bir qadam" tamoyili asosida tashkil etish.

65-maqсад: Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

66-maqсад: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda tibbiyot sohasini rivlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun juda ko'p ishlar qilinmoqda, turli xil qonunlar qabul qilinmoqda. Bu qilinayotgan ishlar kelajakda o'z mevasini beradi va tibbiyotimiz rivojlangan davlatlar tibbiyoti bilan bir xil darajaga yetadi. Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan tibbiyot sohasini rivojlantirishdagi muhim maqsadlar bu yo'ldagi asosiy qadam vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Sh.M. Mirziyoyev . Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. Sog'liqni saqlash: muammo va yechimlar 210-219-betlar.
3. Сатторова Д. Ф. Харакат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари асосий ғояси асосида олий тиббий таълимни такомиллаштириш // Медицина ва инновация.- Тошкент, 2022.-Б
- 4, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi <https://lex.uz/acts/-3107036>